

**Miralisher XASANOV,**

*O'zbekiston Milliy universiteti Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i*

*E-mail: miralisherxasanov@gmail.com*

*Tel: (97) 917 51 15*

*Siyosiy fanlar doktori (DCs), dotsent K.Mirzaaxmedov taqrizi asosida*

## APPROACHES TO SCIENTIFIC RESEARCH OF POLITICAL INSTITUTIONS AND PROCESSES

Annotation

In this article, the importance of political institutions for the development of the country, the existence of state power, and the fact that the state covers all members of society with its activities, fully expresses the interests of all classes and social groups, and forms a wide management apparatus that regulates various spheres of life. Directions, scientific and theoretical studies of the state as an "institutionalized power" in the management system were based.

**Key words:** Political institution, political power, mechanism, state power, management institution, institutionalized power, management power, political parties.

## ПОДХОДЫ К НАУЧНОМУ ИССЛЕДОВАНИЮ ПОЛИТИЧЕСКИХ ИНСТИТУТОВ И ПРОЦЕССОВ

Аннотация

В данной статье подчеркивается значение политических институтов для развития страны, существование государственной власти, а также то, что государство охватывает своей деятельностью всех членов общества, полностью выражает интересы всех классов и социальных групп, формирует широкий аппарат управления, регулирующий различные сферы жизни. Направления, были основаны научно-теоретические исследования государства как «институционализированной власти» в системе управления.

**Ключевые слова:** Политический институт, политическая власть, механизм, государственная власть, институт управления, институционализированная власть, управленческая власть, политические партии.

## SIYOSIY INSTITUTLAR VA JARAYONLARNI ILMIY TADQIQ ETISHGA BO'LGAN YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada siyosiy institutlarning mamlakat taraqqiyoti uchun ahamiyati, davlat hokimiyatining mavjudligi hamda davlat o'z faoliyati bilan jamiyatning barcha a'zolarini qamrab olishi, barcha tabaqalar va ijtimoiy guruhlar manfaatlarini to'la ifodalashi, hayotning turli sohalarini tartibga soluvchi keng boshqaruv apparatini shakllantirishi kabi tadqiqot yo'nalishlari, boshqaruv tizimida aynan davlatga "Institutsionallashgan hokimiyat" sifatidagi ilmiy-nazariy tadqiqotlar borasidagi izlanishlar asoslandi.

**Kalit so'zlar:** Siyosiy institut, siyosiy hokimiyat, mehanizm, davlat hokimiyati, boshqaruv instituti, institutsionallashgan hokimiyat, boshqaruv hokimiyati, siyosiy partiyalar.

**Kirish.** Bugungi kunda siyosiy institutlarni o'rganish muammosi siyosatshunoslik, falsafa, huquqshunoslik va sotsiologiya kabi fanlarning eng asosiy muamolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, siyosiy institutlarning mamlakat taraqqiyoti uchun ahamiyatiga nisbatan qiziqish, bu boradagi tadqiqot yo'nalishlari kun-sayin o'sib, kengayib borayotganligini alohida qayd etmoq lozim.

Ma'lumki, har qanday davlat o'z siyosiy institutlariga ega. Siyosiy tizimning taraqqiyot darajasi siyosiy institutlar soni va ko'rinishlarining faolligiga bog'liq. Hozirgi davrda siyosiy institutlar deganda ma'lum bir tuzilishga va bo'ysunishga ega bo'lgan, vaqt o'tishi bilan tashkilotlar va insonlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yorlar va qoidalar majmui bilan qayta ishlab chiqarilgan muassasalar, tashkilotlar yig'indisi tushuniladi. Demak, siyosiy institutlar uchlik yaxlitlikka - tashkilot, normalar, munosabatlar yig'indisidan iboratdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "Institut" tushunchasi lotincha "institutum", so'zidan olingan bo'lib, "o'rnatish" yoki "ta'sis qilish" ma'nolarini anglatadi. Shu ma'noda institutlarga etimologik jihatdan so'zma-so'z talqinni bergan olim M.Veber bo'lib, u davlatni institutning eng sof misoli sifatida ko'rsatadi va uni ratsional me'yorlar, konstitutsiya, qonunlar va boshqalarga asoslanadigan xulq-atvoriga ega bo'lgan odamlarning hamjamiyatini tashkil qiluvchi sifatida baholaydi[1]. E.Dyurkgeym esa institutlar bir tomondan, odatlar va e'tiqodlar ko'rinishidagi ideal tashkilotlardan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan, ushbu odatlar va stereotiplar o'z navbatida turli vaqtlar va xalqlarning ijtimoiy tashkilotlari faoliyatida moddiylashadi, deya hisoblaydi[2]. Mana shunday fikrlari bilan E. Dyurkgeym Fransiyada 1950-1970 yillarida bosqichma-bosqich vujudga kelgan fransuz "ijtimoiy institutsionalizm" maktabiga asos soldi[3].

Siyosiy fanlarda odatda, siyosiy institutlarning uch asosiy mazmuni qabul qilingan:

- institutlar siyosiy tuzilma sifatida;
- institutlar siyosiy muassasa sifatida;
- institutlar siyosiy xulq-atvorning barqaror turi sifatida.

Siyosiy institutlar odatda davlat hokimiyati institutlari va bevosita ishtirok etuvchi institutlar turiga bo'linadi. Birinchisiga turli ierarxik (gorizontal va vertikal) darajalarda davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi institutlar kirs, ikkinchisiga esa, fuqarolik jamiyati tuzilmalari kiradi. Shu bois, siyosiy institutlarning yig'indisi jamiyatning siyosiy tizimini tashkil etadi.

Siyosiy hokimiyat mexanizmi sifatida siyosiy institutlar faoliyatining tabiati, ular foydalanadigan vositalar va usullar bilan belgilanadi. Asosiy hokimiyat instituti - davlat hisoblanib, u davlat hokimiyatining mavjudligini amalga oshiradi[4]. Davlat o'z faoliyati bilan jamiyatning barcha a'zolarini qamrab oladi, barcha tabaqalar va ijtimoiy guruhlar manfaatlarini to'la ifodalaydi, hayotning turli sohalarini tartibga soluvchi keng boshqaruv apparatini shakllantiradi.

Ma'muriy davlat boshqaruvi nazariyasi evolyusiyasining Fransiyada rivojlangan dastlabki bosqichlaridan biri "institutlar nazariyasi"dir. Parij universitetining professori Moris Dyuverje institutlar nazariyasi borasidagi tadqiqotlar doirasini kengaytirib, uning yo'nalish va xususiyatlarini ochib berishga harakat qildi. "Shu kundan boshlab, yozadi M.Dyuverje-nafaqat qonuniy belgilangan institutlar, balki shu institutlarga o'xshash hamda undan quyida turuvchi boshqaruv institutlari ham o'rganilmoqda"[5].

XX asrning 70-yillari boshida M.Dyuverje institutlarning yangi tushunchasini ishlab chiqdi. U siyosiy strukturalizm nazariyasi ta'siri ostida vujudga kelgan bo'lib, ham o'zining xarakteriga, ham xajmiga ko'ra an'anaviy institut tushunchasidan farq qiladi. M.Dyuverje fikricha, "institutlar-insoniy munosabatlarning mashhur modelidir. Ular institutsional modellarni doirasidan tashqari yuzaga kelgan munosabatlardan farqlanib, ushbu munosabatlar tasodifiy va beqarordir"[6]. Shuning uchun ham, M.Dyuverje ma'muriy davlat boshqaruvida "institutlarning" yondashuvni taklif etadi hamda ushbu nazariya orqali Fransiyada "boshqaruvning institutsional konsepsiyasi" shakllana boshlaydi. Bu konsepsiya, davlatning konstitutsiyaviy huquq normasi doirasida ishlab chiqilgan yuridik shaxs sifatidagi talqini o'rimga vujudga keldi. Natijada, boshqaruv tizimida aynan davlatga "institutlarning konstitutsiyaviy hokimiyati" sifatidagi ilmiy-nazariy tadqiqotlar vujudga kelgan.

Ma'lumki, davlatning institutsiyaviy unsuri, bu-davlat hokimiyati tizimini amalga oshiradigan pog'onaviy tashkilotlar majmuasidir[7]. Shu ma'noda davlat hokimiyatini amalga oshiradigan tashkilot "davlat hokimiyati organlari", "davlat apparati" yoki "davlat boshqaruv ma'muriyati", "davlat boshqaruvi" kabi tushunchalar orqali ifodalanadi.

Institutsionalizm nazariyasi asoschilaridan biri bo'lgan yana bir fransuz professori Moris Oriu "jamiyatni" juda ko'p sonli institutlar yig'indisi deb hisoblaydi[8]. Uning fikricha, ijtimoiy mexanizmlar - bu insonlarni o'z ichiga olgan tashkilotlar yoki institutlar, shuningdek, g'oya, ideal, prinsip bo'lib, bu insonlarning xulq-atvorini ajratib turadigan o'ziga xos vosita bo'lib xizmat qiladi. Agar dastlab u yoki bu shaxslar doirasi birgalikda harakat qilish uchun birlashgan holda tashkilot tuzsa, unda unga kirgan shaxslar o'zlarining birlashgan ongiga singib ketgan paytdan boshlab, u allaqachon institut sifatida paydo bo'ladi. Fransuz huquqshunosi "rahbarlik g'oyasini institutning alohida ajralib turadigan xususiyati", deb hisobladi.

Davlat va boshqa ijtimoiy institutlar o'rtasidagi munosabatlar masalasini M.Oriu "tenglar orasida birinchi" g'oyasi orqali tushuntirishga harakat qiladi. Uningcha "davlatga suverenitet sifatida emas, balki institutlar ichida bosh institut sifatida qarash kerak"[9].

Rossiyalik olim S.S.Frolovning fikricha, institutlar - jamiyat a'zolari (aniq bir qatlam misolida) ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan, an'analar va bajarilishi lozim bo'lgan o'zaro munosabatlar va ijtimoiy normalarning tartibga solingan ko'rinishidir[10]. Bizningcha, siyosiy institut inson ongi va tafakkurini yo'naltiruvchi o'ziga xos, tartiblashgan yagona mexanizmlar yig'indisi. Jamiyatning taraqqiyoti uning murakkabligi, uning a'zolari, shuningdek, ularni birlashtiruvchi (yo'naltiruvchi) institutlar xilma-xilligi bilan izohlanadi. Siyosiy jarayonlarda ijtimoiy institutlarning muhimligi shundan iboratki, ular jamiyatning siyosiy jarayonlarida bevosita va bilvosita ishtirok etuvchi qatlamni shakllantirishning birlamchi manbasi ekanligidir.

Har qanday institut (siyosiy, ijtimoiy) o'z faoliyatini bevosita institutsiyaviylashuv (davriy qonuniyatlarni asta-sekin moslashtira borish) jarayoni orqali mustahkamlaydi. Institutsiyaviylashuv - ichki qonuniyatlarni va tajribaviy jarayonlar asosida paydo bo'ladigan xatti-harakatlarning nazorat qilish, tartibga solish, shuningdek, boshqarish imkoniyatini beradigan xatti-harakatlar bilan almashinuvdir[11].

G'arblik mashhur olim M.Veber jamiyat istiqbolini bevosita inson omili bilan bog'lagan holda, siyosiy institutlar tarkibini quyidagicha tahlil qiladi[12]:

- 1) avvalo rasmiylik, ya'ni insonlar o'rtasidagi munosabatlar bevosita belgilab qo'yilgan qonun-qoidalar, ramziy belgilar vositasida birlashadi, barcha a'zolar shu qonun-qoidalariga amal qilishi, ramziy belgilarni hurmat qilishi nazorat qilinadi;
- 2) instrumental - insonlar o'rtasidagi munosabatlarni ma'lum maqsadlar asosida birlashtirish mexanizmi;
- 3) konseptual - bu holat insonlarning munosabatlari turli nazariya, aql, empirik bilimlar asosiga qurilgan ko'rinishi;
- 4) substansional - yuqoridagi jarayon insonning o'z qarashlari, xatti-harakatlari, qadriyatlar, axloqiy me'yorlar asosiga qurilishi.

R.Mills institutlarning tarkibiy qismini ijtimoiy rollarning umumiylik deya e'tirof etadi[13]. P.Berger esa institutlar tarkibiy jihatlarni maxsus, tashkiliylik xususiyatlari bilan ajralib turadigan, ijtimoiy harakatlar uyg'unligini, birdamligini ta'minlovchi maqsadlar to'plamini, masalan, yuridik qonun, nikoh, ijtimoiy qatlamlarni tushunadi[14].

Tadqiqotchilar Dj.Bernard va L.Tompsonlar esa institutlarning tarkibiy qismlarini qoidalar va axloq me'yorlari majmui sifatida e'tirof etishgan.[15] Ayni vaqtda yuqoridagi qarashlar an'anaviy siyosiy institutlar to'g'risida to'liq tasavvurni shakllantiradi, deyish qiyin. Zero, siyosiy qarashlar asosan ilmiy-nazariy xarakterga ega. Bu o'rinda shuni qo'shimcha qilish mumkinki, institutlarning tarkibiy qismlari faqatgina qoidalar va axloq me'yorlarining o'zi bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni insonlarning nuqtai nazarlari mohiyatini anglagan holda, jamiyatning umummilliy tamoyillarini to'g'ri yo'naltirish, o'rnatilgan tartib qoidalariga amal qilish madaniyatini shakllantirish kabi muhim vositalar yig'indisi bilan izohlasak bo'ladi.

Buyuk bobokalonimiz Amir Temur o'zining «Tuzuklari»da «Saltanatim binosini islom dini (ijtimoiy institut), to'ra va tuzuk (siyosiy institutlar) asosida mustahkamladim»[16], deb ta'kidlagan.

An'anaviy jamiyat institutlari G'arb manbalarida konservativizm natijasi sifatida talqin etilsa-da, an'anaviy jamiyat institutlari milliy totuvlik, sarhadlar barqarorligi, eng asosiysi, davlat va jamiyat munosabatlarining tayanchi sifatida yuzaga chiqqanligini ko'rsatish lozim.

Siyosiy institutlar jamiyatning asosini tashkil etgan holda, davlat va jamiyat o'rtasida o'ziga xos siyosiy jarayonlarni shakllantirish hamda rivojlantirish omili sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu jarayon, ayniqsa, zamonaviylashuv munosabatlariga kirayotgan davlatlar uchun muhim bo'lib, hukumatning qay tarzda shakllanishi hamda uning turli idoralari qanday huquqlarga ega ekanligini, shuningdek, undan qanday foydalanish mexanizmlarini belgilaydi[17]. Siyosiy institutlar har bir jamiyatda yangicha g'oyalarni shakllantirish xususiyatiga ega ekanligi bilan o'zgarishlarda (yangilanishlarda) burilishi yasay oladi. Boshqaruv hokimiyatining ta'sirini oshirishda asosiy mezon vazifasini bajarishi nuqtai nazaridan alohida strategiyaga ega. Bunda ularni qanchalik demokratik tamoyil va qoidalar asosida faoliyat ko'rsatishi muhimdir. Amerikalik siyosatshunoslar X.Lins va A.Stepanlarning tadqiqotida har qanday jamiyatda siyosiy institutlarning transformatsiyalashuvi oxir-oqibatda quyidagi natijalarni ta'minlab beradi: a) faol fuqarolik jamiyati; b) qisman mustaqil siyosiy jamiyat; v) huquqiy davlat; g) faol davlat va fuqarolik mexanizmi; z) iqtisodiy jamiyat[18].

Amerikalik tadqiqotchi T.Parsonsning fikriga ko'ra, «siyosiy institutlar, ayniqsa, davlatning zamonaviylashuv va taraqqiyot jarayoniga kirishuvda avvalo «integratsiyaviylik» xususiyati bilan ajralib turishi hamda yangicha munosabatlarni yo'naltirishda boshchilik qilishi bilan ifodalanadi»[19].

Tadqiqot metodologiyasi. Dunyoda sodir bo'layotgan so'nggi voqea-hodisalar siyosiy institutlarning transformatsiyalashuvi hamda ularning siyosiy munosabatlarga integratsiyalashuvi talabini qo'ymoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu yangilanishlarni o'zlashtirmay hamda chuqur tadqiq etmasdan turib, bugungi globallashtirish jarayonida rivojlanishga erishib bo'lmaydi.

Har bir jamiyatda siyosiy institutlarning faoliyati, yo‘nalishlari uning tizimi bilan bog‘liq ravishda rivojlanishi lozim. Zero, har qanday qoidalar tizimga solingan, tartiblashtirilgan bo‘lishi shart. Tizim tushunchasining siyosiy institutlarga xos birinchi belgisi – institutlarning o‘zi tartiblashgan qoidalar umumiyligi ekanligidir. Bunda tizimning elementi muhim ahamiyat kasb etib, unda ko‘ra aniq bir maqsadni amalga oshirishni muvaffaqiyatli yakunlash uchun alohida qismlarga ajratilishi tushuniladi[20].

Jumladan, davlat siyosiy institut sifatida bir qator belgilarga ega va ana shu belgilari orqali ham tavsiflanadi:

Birinchidan, davlat albatta muayan hududga va aholiga ega bo‘lgan tashkilot. Davlat hokimiyati muayan hudud va shu hududda yashovchi aholini qamraydi. Davlatning yaxlitligi fuqarolik instituti bilan ta‘minlanadi. Har qanday davlat geografik chegaraga ega;

Ikkinchidan, siyosiy hokimiyatning bir turi sifatida davlat jamiyatni boshqarishga ixtisoslashgan ommaviy hokimiyat institutlariga ega: qonunchilik, ijro, sud hokimiyati institutlari. Mamlakatda tartibni saqlash, havfsizlikni ta‘minlash va zarur bo‘lganda kuch ishlatish uchun armiya, tartibni saqlash va nazorat xizmatlari amal qiladi;

Uchinchidan, davlat ijtimoiy hayotni huquq asosida tashkil etadi. Faqat davlatgina barcha uchun majburiy qonunlar qabul qilish huquqiga ega. Bu talablarni davlat ma‘muriy apparat va sudlar yordamida amalga oshiradi;

To‘rtinchidan, davlat oliy hokimiyat egasi. Bu - davlat hokimiyati hokimiyatning boshqa turlaridan ustunligi, barcha uchun majburiyligi, boshqa hokimiyatlar qarorlarini bekor qila olishida, bir qator mutloq huquqlarga egaligi (masalan, soliq solish, kuch ishlatishga qonuniy huquqi, qonun chiqarish) da namoyon bo‘ladi;

Beshinchidan, davlat jamiyat barcha a‘zolarining doimiy manfaatlarini ifodalovchi yagona institut. Qolgan institutlar shu ma‘noda xususiy deb qaralishi mumkin. Masalan, siyosiy partiyalar muayan qatamlar manfaatini ifodalaydi. Davlat shu tariqa legitimlash instituti hamdir.

Xulosa va takliflar. Yangilanayotgan O‘zbekistonda siyosiy institutlar transformatsiyalashuvi, avvalo, bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlarning davlat boshqaruviga oid tajribalarini qo‘llash, shu bilan birga, siyosiy institutlar faoliyatini inson manfaatlarini yetakchi o‘ringa qo‘yish orqali yangi bosqichga ko‘tarish masalalari uzoq istiqbolga mo‘ljallangan strategik maqsad bo‘lishi kerak. Zero, Prezident Sh.Mirziyoev ta‘kidlaganidek, «Yangi O‘zbekiston orzusi amaliyotga, real voqelikka aylanmoqda. Ammo bu osonlikcha, o‘z-o‘zidan bo‘ladigan ish emas. Yangi jamiyatni barpo etish, avlodlarimiz uchun yorug‘ kelajakni yaratish ehtiyoji barchamizdan ulkan mas‘uliyat, fidoyilik va bunyodkorlikni talab qilmoqda»[21].

Bu jarayon O‘zbekistonda siyosiy islohotlarning yangicha tabiatini belgilab beradi. Uning asosiy mazmuni, fikrimizcha, «inson – jamiyat – yangicha siyosiy tafakkur» ko‘rinishida aks etadi.

Odatda, institutlar faoliyati aniq bir jamiyat uchun xarakterli bo‘lgan siyosiy jarayon sikllari ro‘y berib turishini ta‘minlaydi. Boshqacha aytganda, umumdavlat, umumjamoaviy qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoni, avvalambor, yetakchi siyosiy institutlar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, demokratik mamlakatlarda siyosiy jarayon, qoidaga binoan, saylovlar sikllariga bog‘liq holda shakllanadi va yashaydi. Aholi siyosiy faolligining eng avjiga chiqqan payti davlat hokimiyatining oliy qonun chiqaruvchi va ijroiya organlariga saylovlar davridir.

Institutlarning siyosiy jarayondagi funksiyalarining mufassal modeli taniqli olimlar G.Almond va G.Pauell tomonidan ishlab chiqilgan. Ular siyosiy jarayonda u yoki bu funksiyani bajarish bilan bog‘liq siyosiy o‘sish sur‘ati va institutlarning beshta funksional bosqichini bir-biridan ajratib ko‘rsatdi. Birinchi bosqich-individual va guruhliy manfaatlarini artikulyatsiyalashda ularni ifodalash va funksiyalar sohibi sifatida guruhliy birlashmalar («manfaatlar guruhlari») ijtimoiy kengliklarga chiqadi. Bunga tadbirkorlar uyushmalari, kasaba uyushmalari kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Keyingi bosqich – manfaatlarini agregatsiyalash asosan siyosiy partiyalar faoliyati bilan bog‘liqdir. Bunda turli individlar va guruhlarning har xil manfaatlari saralanadi va yaxlit partiyaviy-siyosiy yo‘l sifatida (nuqtai nazar) birlashadi. Bu kabi holatlar ommaviy (masalan, sotsial-demokratik) partiyalar misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Siyosiy yo‘lni ishlab chiqish bosqichida integratsiyalash rolini vakillik va qonun chiqaruvchi institutlar bajaradi. Ular jamoaviy qarorlarni shakllantiradi.

Qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish bosqichi asosan ijroiya hokimiyat institutlari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, bunda zaruriy tadbirlar amalga oshiriladi va kerakli resurslar izlab topiladi.

## ADABIYOTLAR

1. Weber W. Spanmmgen und Krafte im Westdeutschen Verfassungssystem. Humbolt, 1970. - P. 52.
2. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. М., 1991. - С. 283-284.
3. Современная буржуазная политическая наука: Проблемы государства и демократии // Под общ. ред. Шахназарова Г.Х. М., 1982. Гл. 4. - С.116
4. Соловьев О.М. Политические институты: Учебное пособие. М., СПб., 2003.
5. Duverger M. Institutions politique et droit constitutionnel. // Paris, 1970. P. 7.
6. Duverger M. Sociologie politique. // Paris, 1970. - P.103.
7. Мирзаахмедов К. “Ўзбекистонда давлат бошқаруви жараёнларини демократилаштириш эволюцияси” мавзусидаги сиёсий фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Т.:, 2019.
8. Ориу М. Основы публичного права. Монография, ИНФРА -М, 2021 г. ISBN: 978-5-16-011647-1.
9. Ориу М. Основы публичного права. Монография, ИНФРА -М, 2021 г. ISBN: 978-5-16-011647-1. - С. 77.
10. Фролов С. Социология. - М.: Наука,1994. - С.122.
11. Фролов С. Социология. - М.: Наука,1994. - С.124.
12. История социологии в Западной Европе и США. – М.: 1993. - С. 180.
13. Чарлз Р. Властвующая элита. -М.: Издательства иностранной литературы. 1959., – С. 17.
14. Бергер П.Л. Приглашение а социологию:Гуманистическая перспектива/Пер. с англ. под. ред. Г.С.Батыгина. -М., 1996. – С.84
15. Bernard J., Thompson L.F. Sociology. Nurses and their Patients in Modern Society.-Saint Louis: The C.V. Mosby Co., 1970. - P.125.
16. Темур тузуклари / форсчадан тарж. А.Соғуний ва Ҳ.Караматов. – Т.: Шарқ, 2005. – Б.64.
17. Джеймс А. Робинсон. Почему одни страны богатые, а другие бедные. Происхождение власти, процветания и нищеты: АСТ; – Москва; 2015. – С. 189.

18. Линц Х., Степан А. «Государственность», национализм и демократизация // Политические исследования. 1997. № 5. – С. 9-30
19. Парсонс Т. О структуре социального действия. – М.: Академический проект. 2018. – С. 301.
20. Волкова В.Н., Денисов А.А. Теория систем и системный анализ: учебник для академического бакалавриата. 2-е. – М.: Юрайт, 2014. – С. 616.
21. Ш.Мирзиёв. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Т: O‘zbekiston нашриёти, 2022. – Б. 23.